

INTERNET ORQALI QARZ SHARTNOMASI TUZISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Begnazarov Javohir Farhod o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakulteti talabasi
javohirbegnazarov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda hozirgi kunda dolzabr mavzulardan biri hisoblangan yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida internet orqali tuziladigan qarz shartnomalari va fuqarolik subyektlari o'rtasidagi qarz munosabatlari, qarz shartnomasi yuzasidan kelib chiqadigan nizolarning huquqiy yechimi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishingiz mumkin, bundan tashqari internet orqali va axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida tuziladigan qarz shartnomalarini chet el davlatlari tajribasida ko'rib chiqishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: Qarz shartnomasi, nizo, elektron shartnomalar

PECULIARITIES OF CONCLUDING A LOAN AGREEMENT VIA THE INTERNET

Begnazarov Javohir Farhod o'g'li

Tashkent State University of Law

Student of private law faculty

javohirbegnazarov@gmail.com

Abstract. In this article, you can get information about debt agreements between legal entities and individuals, which are considered one of the most popular topics today, and debt relations between civil entities, legal solutions to disputes arising from debt agreements, in addition, you can consider loan contracts concluded via the Internet and with the help of information and communication tools in the experience of foreign countries.

Key words: Loan agreements, dispute, electronic contracts

Kirish

Insoniyat mavjud ekan, ular o'rtasida fuqarolik munosabati vujudga keladi, jumladan qarz munosabatiga yuzlanadigan bo'lsak, qadimda qarz munosabatlari oddiy ko'rinish kasb etgan, o'ziga xos jazo choralari, o'ziga xos qarz berilganligi yuzasidan isbotlash vositalari mavjud bo'lgan. Afsuski, hozirgi kunda ham fuqarolar o'rtasida qarz munosabati yuzasidan ko'plab kelishmovchiliklar kelib chiqmoqda. Fuqarolar o'rtasidagi qarz munosabatlari ko'p holatlarda firibgarlikka asoslangandir, chunki qarz beruvchi ko'p holatlarda insoniylik yoki ishonchga asoslangan holda qarz munosabatlariga kirishadi.

Qonunchilikka ko'ra jismoniy shaxslar o'rtasidagi fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan shartnomalar va bitimlar, jumladan qarz shartnomasi ham og'zaki, yozma tarzda tuziladi. Hozirgi kunda yurtimizda raqamlashtirish davri bo'lganligi bois shartnomalar ham elektron tarzda tuzilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining 29.09.2022 – yildagi “Elektron tijorat to'g'risida” gi O'RQ-792-son qonuniga ko'ra Qonunga ko'ra, elektron tijoratda shartnoma taraflar o'rtasida shartnoma shartlarini elektron hujjatlar va xabarlarni tasdiqlash yo'li bilan kelishish orqali elektron hujjat shaklida rasmiylashtiriladi va bu yozma tuzilgan shartnomaga tenglashtiriladi.¹ Tog'ri, ushbu qonun aynan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanyotgan subyektlar o'rtasida tuziladigan shartnomalarga nisbatan tatbiq etiladi, ammo e'tiborlisi shuki, ushbu amaliyot O'zbekiston Respublikasida ham tartibga solina boshlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Bu amaliyotni fuqarolar o'rtasidagi shartnomalarga ham tatbiq etishda to'sqinlik mavjud emas, ayniqsa fuqarolar o'rtasidagi qarz munosabatlariga ham shu usulni faol qo'llashimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tahliliy qism

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-6213382> (Kuchga kirish sanasi 31.12.2022 yil)

Qarz shartnomasi yuzasidan professor Ikrom Zokirov hamda M.Abdusalomovlar quyidagicha fikr bildirgan ya'ni muayyan muddatga qaytarish sharti bilan pul berib turish tushuniladi. Shu tariqa qarz berishga nafaqat o'zaro yordam va ishonchning turi, balki foyda ko'rish vositasi sifatida ham qarala boshlandi.²

Qarz asosan kimgadir yordam berish uchun o'zaro ishonch asosida taqdim etiladi va qarzdor o'zaro shartnoma kelishuvda nazarda tutilgan muddatlarda qarz beruvchiga qaytarishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 733 – moddasi moddasiga ko'ra fuqarolar o'rtasida qarz shartnomasi bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravaridan ortiq bo'lgan taqdirda ushbu shartnoma yozma tarzda tuzilishi lozim, yuridik shaxslar va fuqarolar o'rtasida qarz shartnomasi tuzilgan taqdirda esa har qanday vaziyatda yozma tuzilishi kerak. Qarz shartnomasining yozma shakli katta ahamiyatga ega, chunki bu jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi o'zaro tuzilgan qarz shartnomasini tuzilganligini tasdiqlovchi o'ziga xos vosita hisoblanadi, e'tiborlisi shuki, shartnomalar elektron vositalar orqali tuzilsa ham yozma shartnomaga tenglashtiriladi.

Vazirlar Mahkamasining 02.06.2016 – yildagi “Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 185-son qaroriga ko'ra axborot tizimlaridan foydalangan holda tuzilgan shartnoma yozma shaklda tuzilgan va taraflar tomonidan imzolangan, shu jumladan taraflarning muhrlari bilan tasdiqlangan shartnomaga tenglashtiriladi³ deya belgilab qo'yilgan.

Tomonlar internetda shartnoma tuzish jarayonida ushbu shartnomani elektron raqamli imzo orqali rasmiylashtirishadi va shartnoma tuzilgan hisoblanadi. Fuqarolik

² Fuqarolik huquqi. Q.II/M. Abdusalomov, X. Azizov, B.Axmadjonov va boshq.; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent Davlat yuridik instituti. - Toshkent: Adolat, 2007. 882 bet - Б.ц.

³ <https://lex.uz/ru/docs/-2973939>

kodeksining 107 – moddasiga nazar soladigan bo'lsak, unda xatlar, telegrammalar, telefonogrammalar, teletaypogrammalar, fakslar yoki subyektlarni va ular xohish-irodasining mazmunini ifodalaydigan boshqa hujjatlarni o'zaro ayirboshlash, agar qonunchilikda yoki taraflarning kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, yozma shaklda tuzilgan bitimga tenglashtiriladi deya belgilangan. Internet orqali o'zaro xat yozishmalar va boshqa shu kabi elektron vositalar orqali o'zining shartnoma tuzishga bo'lgan xohishini bildirish va qarshi tomonning ushbu shartnomani qabul qilishga bo'lgan xohishini bildirishi shartnoma tuzilganini hisoblanadi. Bundan tashqari tomonlar internetdagi yozishmalar orqali qarzning miqdori, to'lanish tartibi, foizlari va boshqa shu kabi talablarni kelishib olishlari ham mumkin, agar ushbu shartnoma yuzasidan nizo chiqqan taqdirda tomonlar shartnomani tuzilganini isbotlash uchun internet tarmoqlaridagi o'zaro yozishmalarini, tomonlarning ushbu taklif va talablarga rozi bo'lganligini isbotlab berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ushbu masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasining sud amaliyotiga nazar soladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 19.12.2020 – yildagi “Sudlar tomonidan fuqarolik ishlari bo'yicha dalillar va isbotlashga oid qonun normalarini qo'llash amaliyoti to'g'risida”gi qarorining 17 – bandiga ko'ra ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni o'zida saqlagan elektron pochta yoki boshqa axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirilgan yozishmalar sud tomonidan boshqa dalillar majmuida baholanishi lozim. Ushbu qaror majburiy ahamiyatga ega bo'lmasligi mumkin, ammo unda keltirilgan qoidalar sudlar tomonidan nizoni hal etishda foydalaniladi, ya'ni fuqarolar o'rtasidagi shartnoma tuzish yuzasidan o'zara internet yoki boshqa elektron vositalar orqali amalga oshirgan yozishmalari ham sudda shartnoma tuzilganligini isbotlovchi dalil sifatida hisobga olinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 733 – moddasiga ko'ra qarz shartnomasidagi taraflardan biri yuridik shaxs bo'lganida esa summasidan qat'i nazar, yozma shaklda tuzilishi shartligi ko'rsatilgan. Bundan kelib chiqadiki, yuridik shaxslar ham fuqarolar bilan qarz shartnomasini tuzish imkoniyatiga ega, ammo bu shartnoma har qanday vaziyatda yozma tuzilishi lozim, aks holda shartnoma tuzilganligi yuzasidan nizo kelib chiqishi mumkin va bu holatda O'z.R. Fuqarolik kodeksining 109 – moddasiga ko'ra shartnoma yozma tarzda tuzilmaganligi natijasida ushbu shartnoma o'z-o'zidan haqiqiy emasligiga olib kelmasligi mumkin, ammo tomonlar shartnoma tuzilganligini isbotlash uchun guvohlardan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lishadi, shu vaziyatda tomonlar iloji boricha shartnoma tuzilganligini boshqa vositalar orqali isbotlashi lozim, masalan xat yozishmalari, o'zaro hujjat almashinuvlar va boshqa shu kabi vositalar bo'lishi mumkin. Yuqorida biz bu haqida ta'kidlab o'tgan edik, ya'ni internet va boshqa shu kabi axborot-kommunikatsiya tarmoqlari orqali tomonlarning o'zaro yozishmalari, hujjatlar almashinuvi ham shartnomaning yozma shakliga rioya qilgan deb e'tirof etiladi va ushbu shartnomaga nisbatan qonunchilikda belgilangan qarz shartnomasiga oid normalar va oqibatlar qo'llanishi mumkin.

Hozirgi kunda yuridik shaxslar tomonidan fuqarolarga keng ma'lum miqdorda qarz berish tartibi yo'lga qo'yilgan. Ushbu faoliyat "Mikroqarz" deya atalgan. O'zbekiston Respublikasining 20.04.2022 – yildagi " Nobank kredit va Mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi O'RQ – 765 – son qonunining 34 – moddasiga ko'ra mikromoliya tashkilotlari mikroqarz berish tartibi va shartlarini, buning uchun talab qilinadigan hujjatlar nomlarini, masofaviy xizmatlar ko'rsatish tizimlari orqali mikroqarz berish usullari va tayyor formulylari haqidagi ma'lumotlarini o'zlarining veb-saytlariga joylashtirishi lozim.⁴

⁴ <https://lex.uz/uz/docs/-5972411#-5974534>

Ushbu normaga asoslanib aytilish mumkinki, mikromoliya tashkilotlari mustaqil yuridik shaxs sifatida fuqarolar bilan o'zaro qarz shartnomasini elektron vositalar orqali internetda tuzish imkoniyatiga ega va bu shartnoma yozma shartnoma sifatida e'tirof etiladi.

Onlayn mikroqarz olish uchun qanday hujjatlar talab etiladi?

O'zbekiston Respublikasining 20.04.2022 – yildagi “ Nobank kredit va Mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida”gi O'RQ – 765 – son qonuniga ko'ra

- mikroqarz olish uchun ariza;
- shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport/ identifikatsiya ID-kartasi/ yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasi/ harbiy bilet);
- faoliyat va daromad haqida ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlar;

Fuqarolar onlayn tarzda yoki maxsus dasturlar orqali ushbu hujjatlarni mikroqarz tashkilotlariga yuborishadi va ushbu hujjatlar qarz beruvchi tashkilot tomonidan tekshirilib chiqiladi, oxirida talabgorga miqdori 50 mln so'mgacha bo'lgan pul qarz sifatida taqdim etiladi. Ushbu chora-tadbirlarni Fuqarolik kodeksi 107 – moddasi 4-qismiga mos harakat sifatida e'tirof etishimiz mumkin, chunki ushbu moddaga ko'ra subyektlarni va ular xohish-irodasining mazmunini ifodalaydigan boshqa hujjatlarni o'zaro ayirboshlash, taqdim etish yozma shaklda tuzilgan bitimga tenglashtirilishi aytilgan, shu sababdan mikroqarz beruvchi tashkilotlar va fuqarolar o'rtasida axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida masofaviy tuziladigan shartnomalarini ham shartnomaning yozma shakliga amal qilgan deb hisoblashimiz mumkin.

E'tiborlisi shundaki, Fuqarolik kodeksining 734 – moddasiga ko'ra qarz beruvchi (yuridik shaxs yoki fuqaro) qarz oluvchidan qarz summasiga shartnomada belgilangan miqdorda va tartibda foizlar olish huquqiga ega bo'ladi va foizlar to'lash tartibi va muddatlari qarz shartnomasi bilan belgilanadi.⁵

Ushbu normaga asoslanib kredit tashkilotlari qarz bergani hisobiga o'z ixtiyori va qobiliyatiga asoslanib foiz belgilashi mumkin. Fuqarolar foizlar

⁵ <https://lex.uz/docs/-180552>

to'g'risidagi va boshqa talablar to'g'risida mikroqarz tashkilotlarining rasmiy veb-saytida ma'lumotga ega bo'lishi mumkin va ixtiyoriy tarzda masofadan turib kerakli hujjatlarni yuborga holda shartnoma tuzishga erishishlari mumkin.

Elektron qarz shartnomasining tuzilganligini isbotlash vositalari va tuzilish tartibi

Vazirlar Mahkamasining 02.06.2016 – yildagi “Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 185-son qaroriga ko'ra Elektron shartnomalar 3 ta usul bilan tomonlar o'rtasida tuziladi ular:

- Tomonlar elektron raqamli imzo yordamida tasdiqlovchi hujjat asosida
- Tomonlarning roziligini bildiruvchi matn bo'lgan elektron xabar
- Ofertada ko'rsatilgan shartlarni bajarish orqali aksept amalga oshiriladi.

Xususan Anorbank mobil ilovasi orqali fuqarolar elektron tarzda qarz shartnomasi asosida belgilangan miqdordagi qarzni olishlari mumkin va tomonlar o'rtasidagi shartnoma mobil ilovada PDF shaklda saqlanadi va uni arizachi o'ziga yuklab olish imkoniyati mavjud, bu esa fuqarolarga shartnoma tuzilganligini isbotlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Internet orqali qarz shartnomasi tuzilishi chet el tajribasi doirasida

Germaniya

Ushbu masala bo'yicha chet el qonunchiligi va ulardagi xalqaro tajribaga nazar soladigan bo'lsak, jumladan Germaniya Federativ Respublikasining fuqarolik kodeksi 126 a – moddasiga ko'ra qonunda belgilangan yozma shakl elektron shaklga almashtirilishi mumkin, subyektlar shartnomaga o'z nomini qo'shishi va elektron hujjatni o'zining elektron imzosi bilan ta'minlashi shart va tomonlar har biri bir xil hujjatni elektron shaklda imzolashlari orqali shartnoma tuzishlari mumkin.⁶

⁶ https://www.gesetze-im-internet.de/bgb/_126a.html

Germaniyada bunday amaliyot ancha rivojlangan, ya'ni qarz beruvchi tashkilotlar faol tartibda o'zlarining rasmiy veb-saytlarida talabgorlarga qarzlarni taklif etishadi va tegishli tartibda foizlar undirishadi. Germaniya Federativ Respublikasi fuqarolik kodeksining 488 – moddasiga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslar qarz shartnomasi natijasida qarzdordan tegishli tartibda foizlar undirishi mumkin⁷ deya belgilangan. Shu sababli ham Germaniya davlatida mikroqarz tashkilotlari qarz berish evaziga ma'lum miqdorda qarzdordan foiz ham undirish huquqiga ega. Talabgorlar esa internet orqali o'zlari tanlagan mikroqarz tashkilotlarining veb-sayti orqali tegishli hujjatlar bilan ariza jo'natishadi, mikroqarz tashkiloti esa hujjatlarni ko'rib chiqib arizani qabul qiladi va shu yo'l bilan shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Germaniyaliklar internet orqali qarz olishni o'ziga xos qulaylik deb hisoblashadi, chunki bu qarzni olish kop vaqt va ortiqcha harakat talab etmaydi va eng asosiysi qonun talablariga javob beradigan xavfsiz usul deb hisoblashadi⁸

Bundan tashqari Germaniyada shunday qarz turi borki, unda fuqarolar o'zlarining tanishlaridan ma'lum foiz evaziga qarz olishlari mumkin, bunda o'zaro kelishuv axborot-kommunikatsiya tarmoqlari orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Buning afzalligi sifatida tomonlar ikkisi ham jismoniy shaxs bo'lganligi uchun foizlarni o'zaro kelishishlari va bu ko'p holatlarda mikroqarz beruvchi tashkilotlardan ko'ra kamroq foiz belgilanishini asos qilib keltirishadi⁹

Biz shu paytgacha ko'proq yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar o'rtasidagi qarz shartnomasiga e'tibor qaratib keldik, ammo Germaniyada jismoniy shaxslar ham o'zaro qarz oldi-berdisini yozma rasmiylashtirib qo'yish uchun axborot-

⁷ https://www.gesetze-im-internet.de/bgb/_488.html

⁸ <https://icwb.com/de/kleinkredit>

⁹ <https://www.financescout24.de/wissen/ratgeber/darlehensvertrag#kredit-und-darlehen-welche-unterschiede-bestehen>

kommunikatsiya vositalaridan foydalanar ekan. Bizda bunday amaliyot kam uchraydi, hattoki uchratmaslik ham mumkin.

Ushbu amaliyotni O'zbekiston Respublikasida ham keng tatbiq etishni taklif sifatida keltirishimiz mumkin.

Germaniya Federativ Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi huquq tizimlari roman-german huquq tizimi oilasiga mansub bo'lganligi uchun qonunlar va ularni tatbiq etish usullari bir-biriga o'xshash hisoblanadi. Qarz shartnomasi va uni internet orqali tuzish kabi faoliyatlar bizning milliy qonunchiligimizga o'xshash qonunlar asosida tartibga solinadi.

Amerika Qo'shma Shtatlari

Nisbatan boshqa huquq oilasiga mansub Amerika Qo'shma Shtatlarida internet orqali mikroqarz berish amaliyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Bu yerda moliyaviy qiyinchilikka duchor bo'lgan odamlar oz miqdorda qarz olishlari mumkin, bu ularga muammoni engish yoki biznesni boshlash imkonini beradi va onlayn mikroqarz taqdim etish va byurokратиyani kamaytirish uchun mikrokreditlar berish qonun bilan mahalliy nobank tashkilotlariga yuklatilgan, ammo kredit berishda talabgorning moliyaviy to'lov qobiliyati hisobga olinadi.¹⁰

Garchi Amerika qo'shma Shtatlari huquq tizimi boshqa huquq oilasiga mansub bo'lsa ham, onlayn tarzda fuqarolarga ma'lum miqdorda qarz berish amaliyoti bizdagi amaliyotga o'xshashligini ko'rishimiz mumkin.

Qarz shartnomasi yuzasidan sud amaliyoti

Sudya Sh.Tog'ayev raisligida 2022-yil noyabr oyining 08 kuni fuqarolik ishlari bo'yicha Karmana tumanlararo sudi JIB Qiziltepa tuman sudi binosida, ochiq sud majlisi bo'lib o'tdi. Ushbu sud ishiga ko'ra da'vogar javobgardan qaytarish sharti bilan taqdim etilgan 9 mln so'm miqdordagi puni undirib berish yuzasidan

¹⁰ <https://www.monpetitpret.com/en/how-an-online-microloan-works/>

da'vo taqdim etgan. Sud muhokamasi vaqtida taraflar o'rtasida qarz oldi-berdisiga doir tilxat borligi aniqlangan. Sud O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 733 – moddasiga ko'ra tomonlar o'rtasidagi qarz shartnomasi o'rtada tilxat borligi sababli qarz shartnomasi qonun talablariga javob beradigan va shartnomaning yozma shakliga amal qilgan deb hisoblab, javobgardan belgilangan miqdordagi qarz miqdorini udirish uchun da'vogar foydasiga hal qiluv qarori chiqarib bergan.¹¹

Ushbu keltirilgan sud qaroridagi vaziyatda tomonlar o'rtasidagi qarz shartnomasi elektron tarzda emas, balki an'anaviy tarzda tilxat asosida tuzilgan va sud tomonidan bu holat shartnomaning yozma shakliga rioya etilgan deb topilgan.

Vazirlar Mahkamasining 02.06.2016 – yildagi “Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga ko'ra axborot tizimlaridan foydalangan holda tuzilgan shartnoma yozma shaklda tuzilgan va taraflar tomonidan imzolangan, shu jumladan taraflarning muhrlari bilan tasdiqlangan shartnomaga tenglashtiriladi deya belgilab qo'yilgan¹²

Bu va boshqa normativ hujjatlarni asos qilib sud elektron tarzda tuzilgan shartnomalarni shartnomaning yozma shakliga amal qilgan deb topib da'vogarning foydasiga hal qiluv qarori chiqarishi mumkin.

Navbatdagi sud amaliyoti sudya M.A.Komilova raisligida 2020 – yil 5 – sentyabrda fuqarolik ishlari bo'yicha Bo'ston tumanlararo sudi o'z binosida ochiq sud majlisi bo'lib o'tdi. Ushbu sud ishiga ko'ra da'vogar javobgarga qaytarish sharti bilan 7.418.00 so'm qarz bergan, ammo javobgar belgilangan vaqt kelishiga qaramasdan qarz summasini qaytarib bermagan, da'vogar bu vaziyatda javobgardan belgilangan qarz miqdorini undirib berishi yuzasidan da'vo bilan murojaat etgan. Sud muhokamasi natijasiga ko'ra tomonlar o'rtasida hech qanday yozma shartnoma

¹¹ <https://public.sud.uz/report/CIVIL> (2-2101-2203/13151-sonli fuqarolik ishi)

¹² <https://lex.uz/ru/docs/-2973939>

tuzilmagan, ammo da'vogar tomon qarz shartnomasini tuzilganligini isbotlash maqsadida internet orqali javobgar bilan o'zaro yozishmalarini dalil sifatida keltirgan, sud ushbu dalillarni Fuqarolik kodeksining 107 – moddasi 4 – qismiga asosan shartnomani yozma shakliga amal qilgan deb hisoblab, keltirilgan dalil asosida da'vogar foydasiga belgilangan qarz miqdorini javobgardan udirish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarib bergan.¹³

Ushbu sud qarorini tahlil etadigan bo'lsak, sud tomonlarning axborot-kommunikatsiya orqali o'zaro xabar, hujjat almashinuvi asosida tuzilgan qarz shartnomasini yozma shaklga rioya qilgan deb topishi Fuqarolik kodeksi 107 – moddasiga ko'ra to'g'ri chiqarilgan hal qiluv qarori deb o'ylaymiz, chunki hozirgi kunda qarz munosabatlari firibgarlik holatlari ham juda ko'payib ketgan, ya'ni qarzdor atay yozma shartnoma tuzmasdan qarz beruvchi bilan o'zaro qarz munosabatiga kirishadi. Buning oqibatida qarzdor olingan qarzni tan olmaydi, isbotlashga esa hech qanday tilxat yoki boshqa vositalar mavjud bo'lmaydi. Qarz shartnomasini ham elektron tarzda axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida tuzishga harakat qilish lozim. O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 19.12.2020 – yildagi “Sudlar tomonidan fuqarolik ishlari bo'yicha dalillar va isbotlashga oid qonun normalarini qo'llash amaliyoti to'g'risida”gi qarorining 17 – bandiga ko'ra sudlar shartnoma tuzilganligi yuzasidan nizo kelib chiqqanda dalil sifatida axborot-kommunikatsiya vositalari orqali tomonlarning o'zaro yozishmalari va hujjatlar almashinuvini ham shartnomaning yozma shakliga rioya qilgan deb topishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, jadal raqamlashayotgan dunyoda qarz shartnomalari ham elektron tarzda tuzilishi tizimli va tartibli yo'lga qo'yilishi lozim, bu orqali qarz shartnomasi yuzasidan firibgarliklar soni ancha kamaygan bo'lar edi.

¹³ [https://public.sud.uz/report/CIVIL\(2-1703-2202/6747-сонли фуқаролик иши\)](https://public.sud.uz/report/CIVIL(2-1703-2202/6747-сонли_фуқаролик_иши))

Adabiyotlar / References

1. Fuqarolik huquqi. Q.II/M. Abdusalomov, X. Azizov, B.Axmadjonov va boshq.; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent Davlat yuridik instituti. - Toshkent: Adolat, 2007. 882 bet - B.ii.
2. Abdikhakimov, I. (2023, January). Trademark and copyright infringements in social media. In Science-Zone Online Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 187-200).
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
4. Imomniyozov, D. B. O. (2021). KORPORATSIYA IJRO ORGANLARINING FIDUTSIAR MAJBURIYATLARI QIYOSIY HUQUQIY TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 588-600.
5. Abdikhakimov, I. (2023). Legal Aspects of Social Media Marketing Contracts. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 4(1), 125-130.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 19.12.2020 – yildagi “Sudlar tomonidan fuqarolik ishlari bo'yicha dalillar va isbotlashga oid qonun normalarini qo'llash amaliyoti to'g'risida”gi qarori
7. Doniyorbek, I. (2022). MAJBURIYATNI BAJARMAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNI QO'LLASH MUAMMOLARI.
8. Vazirlar Mahkamasining 02.06.2016 – yildagi “Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori
9. Germaniya Federativ Respublikasi fuqarolik kodeksi
10. O'zbekiston Respublikasining 20.04.2022 – yildagi “ Nobank kredit va Mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida”gi O'RQ – 765 – son qonuni

11. Нуруллаева, А., & Мехмонов, К. (2021). Спорт соҳасида агентлик шартномасининг муҳим шартлари хусусидаги қонунчилик ва корпоратив нормалар таҳлили. *Общество и инновации*, 2(4/S), 46-51.
12. Vazirlar Mahkamasining 02.06.2016 – yildagi “Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 185-son qarori
13. Miradhamovich, M. K. (2019). SOME LEGAL ISSUES OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN JURISPRUDENCE. *Review of law sciences*, 1(7), 41-45.
14. Toshmuxammatov, A., & To’xtayev, O. K. (2022). JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOY VA HUQUQIY ZARURIYATI. *Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal*, 1(1), 5-16.
15. O’zbekiston Respublikasining 29.09.2022 – yildagi “Elektron tijorat to’g’risida” gi O’RQ-792-son qonuni
16. Abdixakimov, I. (2022). Cyber Crimes in Digital Economy. *Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal*, 1(1), 1-5.